



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 528 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 456 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6 189,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 8,3 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 203,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 986,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 188,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 227 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 194 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 356,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 239,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 96,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqal'a (9,7 m.), Urganch shahri (2,4 m.), Qo'shko'pir (2,2 m.), Yangiairq (2,0 m.) va Yangibozor tumanlarida (198,1 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 403 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 399 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 439,3 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: +998622246509 (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--